

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA SMETALARNI TUZISH VA IJROSI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Yoqubov Nurbek Faxriddin o'g'li

Toshkent Moliya instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqola O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobida smetalar tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi jarayonini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada mazkur mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda ushbu jarayonni takomillashtirish yuzasidan o'tkazilgan tahlillar va ularning natijalari aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, xarajatlar guruhi, shtat jadvali, buxgalteriya hisobi, shaxsiy hisobvaraqa, budget mablag'i, budgetdan tashqari mablag'lar.*

Mamlakatimiz moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar byudjet tashkilotlarida, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lar manbalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Respublikamizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda ta'lim tizimini moliyaviy sog'lomlashtirishning strategik yo'nalishi, byudjetdan ajratiladigan mablag'larni asosli ravishda qisqartirib borish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni keng jalb etish bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan hisoblanadi.²

Ma'lumki, 2017-yilning 1-sentabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining quyi muassasalarida buxgalteriya xizmatlari tugatilib, moliya-buxgalteriya xizmatlari tashkil qilindi. Ta'lim muassasasini byudjetdan moliyalashtirishning me'yoriy negizi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarori kabi qonunchilik hujjatlaridan iborat. Bular ta'lim muassasasi ichki moliyaviy oqimini tartibga soladi hamda xarajatlar me'yori va rahbarlar huquqini belgilaydi. Ta'lim muassasasining rahbarlari belgilangan qoidalar doirasida tartibga soluvchi buyruqlar va farmoyishlar berish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi "Ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2019-yil 14-yanvardagi 3120-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli byudjet hisobining 7-sonli standarti va "Ta'lim muassasalarining hamda davlat maqsadli jamg'armalarining


² Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini tartibga solish byudjet hisobi standartlari” hamda boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasasida buxgalteriya hisobining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibda, to’g’ri, to’liq va o’z muddatida yuritilishi buxgalteriya hisobi xizmati rahbari mas’ulligida amalga oshiriladi. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari amaliyotida bugungi kunda “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 5-moddasiga muvofiq “UzASBO”- ta’lim muassasalarida avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi dasturiy ta’minoti asosida “elektron raqamli imzo” bilan tasdiqlangan holda yuritilmoqda. “UzASBO” dasturi ta’lim muassasalarining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun mo’ljallangan dastur bo’lib, barcha operatsiyalar, ko’rsatkichlar va me’yorlar, shu jumladan, mehnatga soatbay haq to’lash miqdorlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan o’z vaqtida kiritish asosida buxgalteriya amallari amalga oshirilib kelinmoqda.


Iqtisodchi olim M.X.Saidov o’z tadqiqotlarida oliy ta’lim tizimi daromad va xarajatlar smetasining bajarilishi xususida so’z yuritib: “Oliy ta’lim muassasasining xarajatlar smetasi uning faoliyatini ta’minlash uchun byudjetdan beriladigan mablag’ning umumiy miqdori, maqsadli yo’nalishi va oylar bo’yicha taqsimlanishi belgilanishini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan namunaviy shaklda tuziladi”, – deya ta’kidlab o’tgan.

Xarajatlar smetasi-budjet tashkilotlari, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari va budjetdan mablag’ oluvchilar tomonidan ularga tegishli moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag’lar hajmi doirasida tuziladi. Xarajatlar smetasi ro’yxat raqami 2634 bo’lgan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug’idagi 1- ilovasiga muvofiq tuziladi. Xarajatlar smetalarini tasdiqlash joriy moliya yilining 10-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida tuziladigan smetalarining turlari³
Xarajatlar smetasi 4 guruhdan iborat:

³ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida buyrug'i. 15.12.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2634.



2-rasm. Xarajatlar smetasining tarkibiy guruhlari.4

Budjetdan mablag' oluvchilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda, I guruh xarajatlari II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi. Tegishli byudjet bo'yicha I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun g'azna hisobvaraqlarida zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlari to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha IV guruh xarajatlari amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Budjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lgan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini har yili tuzadi va tasdiqlaydi. Bunda, budjetdan tashqari mablag'lar tushumlari va xarajatlari rejalashtirish budjet tashkilotlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan daromadlar manbai va xarajatlar yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosini amalga oshirish jarayonida kamomadlar, xizmat safarlari, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha xodimlar bilan, stipendiya to'lovlari bo'yicha talabalar bilan hisoblashuvlar amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarida asosan vaqtbay asosida ish haqi to'lanadi. Bunda xar qaysi byudjet tashkiloti namunaviy shtatlar jadvaliga asosanib shtat birliklarini shakllantiradi va belgilangan tartibda razryadlarini qo'yib oylik ish haqini (okladlarini) hisoblaydi va shtatlar jadvalini shakllantiradi. Hozirda byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvaliga kiritilgan ba'zi lavozimlar bo'yicha qonunchilikka asosan belgilangan oylik ish haqlari tayinlanadi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtat jadvallari, shuningdek budjet mablag'larini taqsimlovchilarning va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma shtat jadvallari, ular iqtisodiyot va moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin amalga kiritiladi.

4 A.S.Ramazonov, Sh.V.G'aniyev, I.N.Qo'ziyev. "Budjet hisobi va nazorati". Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 195 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash" haqida buyrug'i. 15.12.2014 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2634.
2. A.S. Ramazonov, Sh.V. G'aniyev, I.N. Qo'ziyev. "Budjet hisobi va nazorati". Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 195 b.
3. Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b.
4. Saidov M.X. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash. – T.: Moliya, 2002-yil. – 134 b.
5. www.lex.uz - (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).